

## **Kedr Hikoya**

Bog‘da kedr daraxti o‘sardi. U yildan yilga kuchga to‘lib yanada tikroq, yanada go‘zal bo‘lib borardi. Boshqa daraxtlardan o‘sib ketdi va ularga quyuq soyasini soldi. Biroq u balandlab borgani sari takabburligi ham shunchalik o‘sdi. Kedr atrofdagilarga mensimayroq qaradi-da, buyruq ohangida qichqirdi:

-Mana bu badbashara yong‘oqni olib tashlang! Va yong‘oq ildizi bilan sug‘urib tashlandi.

-Men mana bu anjirga toqat qilolmayman, uning tasqaraligi jonimga tegdi. Undan meni xalos qiling! — dedi injiq kedr. Anjirni ham o‘sha mash’um qismat kutdi — olib tashlashdi.

O‘zi bilan o‘zi ovora, novdalarini mag‘rur silkitib, kekkaygandan kekkaygan, ko‘rkam kedr javrashdan tinmasdi:

-Atrofimni nok va olmalardan tozalab tashlang! Barcha daraxtlar o‘tinga aylandi.

Shunday qilib, kedr daraxtlarsiz katta bog‘ning yolg‘iz bekasiga aylandi. Bog‘ning salobati yo‘qoldi, avvalgi ko‘rkidan to‘nkalar qoldi, xolos. Kunlardan bir kuni kuchli dovul turdi. Kunlardan bir kuni kuchli dovul turdi. Sovuqdan qaltirab qolgan kedr bor kuchi bilan unga qarshilik ko‘rsatdi. Shamol esa yo‘lida boshqa daraxtlarni uchratmaganidan hech bir qiyinchiliksiz bir o‘zi qaqqayib turgan kedrga tashlandi, ildizlarigacha qo‘porib tashlaguday silkitdi. Ezilib ketgan kedr qahrli shamolga dosh berolmay, qarsillab ketdi va yerga yuztuban yiqildi.

**Gulxan jurnalidan  
Leonardo da Vinci**